<b>Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich</b>	



O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi .....	847
<b>Irgasheva Nigora Akbarovna</b>	
Jismoniy shaxslar daromadlari tarkibi, va ularni soliqqa tortish masalalari.....	854
<b>Ibragimov Zafar Ismailovich</b>	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotining rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	861
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b>	
Milliy iqtisodiyotda ta'lim klasterlarini aniqlash va faoliyatini baholash usullari.....	866
<b>Imamova Nilufar Asamutdinovna</b>	
Перспективы внедрения и развития финансовых технологий в банковской деятельности.....	872
<b>Ражабова Умида Умурзаковна</b>	
Hududlarga davlat budjetidan ijtimoiy sohaga tegishli loyihalarga yo'naltirilgan mablag' tahlili .....	878
<b>Saparov Elmurod Donabayevich</b>	
Ta'lim muassasalarida moddiy qiymatliklar hisobi va nazoratini takomillashtirish yo'llari (oliy ta'lim muassasalari misolida).....	884
<b>Sherkulov Abdunabi Abduvali o'g'li</b>	
Sanoat korxonalarida korporativ moliyani boshqarish tizimini samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlari (KPI) asosida optimallashtirish.....	890
<b>Jumatova Gulzar Maxmud qizi</b>	
Innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ularning sug'urta tashkiloti faoliyatidagi o'rni .....	894
<b>Yakubov Dilshod Kamildjanovich</b>	
Davlat va xususiy sektor hamkorligida oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish.....	902
<b>Oybekov Shohjahon</b>	

**Oybekov Shohjahon**

TDIU Mustaqil izlanuvchisi

## DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGIDA OLIY TA'LIM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ta'lim sohasida DXShni qo'llashning nazariy asoslari hamda xalqaro tajribalar o'rganilib, O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, AQSh va Xitoy tajribasi asosida oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy sektorni jalb etishning samarali mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda qiyosiy, statistik va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan DXSh loyihalari oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, 2020–2024-yillar davomida 57 ta loyiha doirasida 29 mingdan ortiq talabaga mo'ljallangan yotoqxona o'rinlari yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatda DXSh loyihalari asosan ijtimoiy infratuzilma obyektlariga yo'naltirilgani, ilmiy-tadqiqot markazlari va innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda esa bu mexanizmlardan foydalanish hali yetarli darajada keng emasligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, DXSh loyihalarining samaradorligini oshirish uchun loyiha tanlash mezonlarini takomillashtirish, moliyaviy risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish hamda institutsional mexanizmlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sheriklik, oliy ta'lim infratuzilmasi, DXSh loyihalari, ta'limga investitsiyalar, talabalar yotoqxonasi, infratuzilmani rivojlantirish, O'zbekiston oliy ta'lim tizimi.

**Abstract:** This study analyzes the role and importance of public-private partnership (PPP) mechanisms in the development of higher education infrastructure. The study studies the theoretical foundations of the use of PPP in the education sector and international experiences, and conducts a comparative analysis with the practice of Uzbekistan. In particular, based on the experience of the United States and China, effective mechanisms for involving the private sector in the development of higher education infrastructure are considered. The study used comparative, statistical, and regulatory and legal analysis methods. The results show that PPP projects implemented in Uzbekistan in recent years are playing an important role in expanding and modernizing the infrastructure of higher education institutions. In particular, during 2020-2024, dormitory places for more than 29 thousand students were created within the framework of 57 projects. At the same time, it was found that PPP projects in the country are mainly focused on social infrastructure facilities, and the use of these mechanisms in the development of research centers and innovative infrastructure is not yet widespread enough. Based on the results of the study, recommendations were developed to improve project selection criteria, strengthen the financial risk management system, and develop institutional mechanisms to increase the effectiveness of PPP projects.

**Key words:** public-private partnership, higher education infrastructure, PPP projects, investments in education, student dormitories, infrastructure development, higher education system of Uzbekistan.

**Аннотация:** В данном исследовании анализируется роль и значение механизмов государственно-частного партнерства (ГЧП) в развитии инфраструктуры высшего образования. В работе изучаются теоретические основы использования ГЧП в секторе образования и международный опыт, а также проводится сравнительный анализ с практикой Узбекистана. В частности, на основе опыта США и Китая рассматриваются эффективные механизмы вовлечения частного сектора в развитие инфраструктуры высшего образования. В исследовании использованы методы сравнительного, статистического, а также нормативно-правового анализа. Результаты показывают, что



проекты ГЧП, реализованные в Узбекистане в последние годы, играют важную роль в расширении и модернизации инфраструктуры высших учебных заведений. В частности, в период 2020-2024 годов в рамках 57 проектов было создано более 29 тысяч мест в общежитиях для студентов. В то же время установлено, что проекты ГЧП в стране в основном ориентированы на объекты социальной инфраструктуры, а использование этих механизмов в развитии научно-исследовательских центров и инновационной инфраструктуры пока недостаточно распространено. На основе результатов исследования были разработаны рекомендации по улучшению критериев отбора проектов, укреплению системы управления финансовыми рисками и развитию институциональных механизмов повышения эффективности проектов ГЧП.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, инфраструктура высшего образования, проекты ГЧП, инвестиции в образование, студенческие общежития, развитие инфраструктуры, система высшего образования Узбекистана.

## KIRISH

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) – davlat va xususiy sektor o'rtasidagi muayyan muddatli hamkorlik bo'lib, infratuzilmaviy va ijtimoiy-maqsdali loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishda xususiy investitsiyalar jalb qilishga asoslanadi. Oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini moddiy-texnik jihozlash va talabalar sonini ko'paytirish uchun O'zbekistonda so'nggi yillarda DXSh instrumentlaridan keng foydalanish boshlangan.<sup>1</sup> Bunga misol tariqasida O'zbekistonda 2019-yilda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida" qonun qabul qilingani bunga keng yo'l ochdi va 57 ta DXSh loyihasi natijasida oliy ta'lim muassasalarida 29 ming talaba uchun yotoqxonalar barpo etilgan.<sup>2</sup> Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) zamonaviy iqtisodiyotda infratuzilmaviy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U davlat va xususiy sektor o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni nazarda tutib, resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada, xususan, Jahon banki va boshqa moliyaviy institutlar tadqiqotlarida DXSh modeli byudjet cheklovlari sharoitida infratuzilmani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilayotgani qayd etilgan.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimi global miqyosda keskin transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Talabalar sonining oshishi, ta'lim sifati va raqobatbardoshlikka bo'lgan talablarning ortishi oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish doirasida DXSh mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqola davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish hamda O'zbekiston sharoitida DXSh mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda DXSh modellari dunyo bo'yicha keng o'rganilgan. Umuman, DXSh ta'lim loyihalarida davlat xarajatlarini kamaytirib, infratuzilma barpo etish va xizmat sifatini oshirishga xizmat qilishi ko'zda tutiladi. Bir qator tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida qurilish va tijorat infratuzilmasi (talaba yotoqxonasi, sport komplekslari, laboratoriyalar) uchun DXSh yo'lga qo'yilishi misollari o'rganilgan. Masalan, Ma va Li o'quv muassasalari uchun sport inshootlari va sport maydonlari qurishda AQShda DXSh misollarini, shuningdek, Pokiston va Janubiy Koreyada ta'lim infratuzilmasiga oid DXSh dasturlarini keltiradi.<sup>3</sup> Xitoy misolida, Shandong Jianzhu universiteti Yantay kampusida joriy etilgan yangi qavatlar qurilishi loyihasi BOT modeli yani:

BOT (Build–Operate–Transfer) — bu davlat-xususiy sheriklik (DXSh) shakllaridan biri bo'lib, unda xususiy sektor:

- obyektни quradi (Build),
  - ma'lum muddat davomida boshqaradi va foydalanadi (Operate),
  - shundan so'ng uni davlatga topshiradi (Transfer).
- moliyalashtirilib, 1,36 mlrd CNY (taxminan \$190 mln) hajmda investitsiya jalb qiladi.

1 Dwight, Lawrence. 2025. "Republic of Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons." IMF Selected Issues Paper (SIP/2025/087), International Monetary Fund. Washington, DC.

2 <https://president.uz/oz/lists/view/7914#:~:text=Bunday%20shiriklik%20ijtimoiy%20sohalarda%20yaxshi,xususiy%20sektor%20ulushi%20ancha%20yuqori>

3 Junhao Ma, Xiangjun Li. Performance Evaluation of Education Infrastructure Public–Private Partnership Projects in the Operation Stage Based on Limited Cloud Model and Combination Weighting Method. Buildings 2025, 15(11), 1833; <https://doi.org/10.3390/buildings15111833>



O'zbekiston DXSh loyihalari uchun mustahkam qonunchiligini asosi – O'zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-sonli qonunidir.<sup>4</sup> Ushbu Qonunning maqsadi DXSh va konsessiyalar munosabatlarini tartibga solish, loyiha konsepsiyalarini tasdiqlash va DXSh ob'yektlarini boshqarish mexanizmini belgilashdan iborat. Shuningdek, DXSh qonuniy bazasini takomillashtiruvchi bir qator hujjatlar qabul qilingan. Bular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori Davlat qarzi to'g'risidagi Qonun DXSh bo'yicha davlat kafolatlarini joriy darajada hisoblashni nazarda tutadi.<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida 2024 — 2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida DXSh loyihalari bo'yicha 2024–2030-yillarga mo'ljallangan dastur (jami \$30 mlrd) tasdiqlandi va DXSh loyihalarini monitoring qilish va baholash uchun DXSh loyihalari markazi tashkil etildi.<sup>6</sup> Xalqaro tashkilotlardan biri UNESCO ta'limdagi DXSh asoslarini qo'llab, DXSh ta'lim infratuzilmasini mustahkamlashda hamkorlik vositasi ekanini ta'kidlaydi.<sup>7</sup> Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilgan. Xalqaro tajribada DXSh loyihalari orqali universitetlar moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ta'lim sifati oshirilishi mumkinligi asoslab berilgan. Biroq, mazkur tadqiqotlarning aksariyatida rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'proq e'tibor qaratilib, rivojlanayotgan davlatlar, xususan O'zbekiston misolida chuqur tahlillar yetarli darajada olib borilmagan. Ayniqsa, DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, ularning byudjet yuklamasini kamaytirishga ta'siri va uzoq muddatli natijadorligi masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, mavjud tadqiqotlarda normativ-huquqiy bazaning amaliyotdagi ta'siri va loyiha risklarini boshqarish mexanizmlariga nisbatan tizimli yondashuv yetishmaydi. Shu sababli, O'zbekiston sharoitida DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni kompleks baholash va ularning samaradorligini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. O'zbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlar amaliyoti bilan qiyosiy ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali davlat-xususiy sheriklikni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi o'rganilib, uning amaliy samaradorligi baholandi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari, DXSh loyihalari bo'yicha hisobotlar, xalqaro moliyaviy institutlar tahlillari hamda ilmiy maqolalar xizmat qildi. Statistik tahlil usullari yordamida DXSh loyihalarining miqdoriy ko'rsatkichlari, jumladan investitsiya hajmi, infratuzilma obyektlari soni va ularning qamrovi baholandi. Shuningdek, huquqiy hujjatlar va amaliy loyihalar asosida olingan ma'lumotlar tizimli ravishda umimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi va samaradorligi aniqlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchiligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda qo'llash O'zbekiston sharoitida sezilarli ijobiy natijalarni ta'minlamoqda. Xususan, so'nggi yillarda amalga oshirilgan DXSh loyihalari doirasida talabalar turar joylari, o'quv binolari va boshqa infratuzilma obyektlarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024 yillar davomida amalga oshirilgan 57 ta loyiha natijasida 29 mingdan ortiq talabani qamrab oluvchi yotoqxona o'rinlari yaratilgan bo'lib, bu oliy ta'lim tizimida talabalar qamrovini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Solishtirma tahlil natijalari O'zbekiston tajribasining o'ziga xos jihatlari aniqlash imkonini berdi. Xususan, mamlakatda DXSh loyihalari asosan ijtimoiy yo'naltirilgan infratuzilma — talabalar turar joylari va o'quv binolarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda bunday loyihalar kengroq spektrni, jumladan ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, sport inshootlari va innovatsion kampuslarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda DXSh loyihalarida davlat kafolatlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi investorlar uchun nisbatan qulay shart-sharoit yaratgan bo'lsa-da, ayrim hollarda bu davlat byudjeti zimmasiga

4 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.05.2019 yildagi O'RQ-537-son lex.uz

5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2021 yildagi 509-son

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.08.2024 yildagi PQ-308-son

7 Public-private partnerships to bridge gaps in education continuity in times of crises: the Ukraine case study UNESCO2025



qo'shimcha majburiyatlar yuklanishiga olib kelishi mumkin. Quyida oliy ta'lim infratuzilmasida DXSh bo'yicha misol sifatida O'zbekiston va xorijiy loyihalar solishtirilgan:

Loyiha	Mamlakat	Infratuzilma turi	Moliya modeli	Investitsiya hajmi	Asosiy sheriklar
O'zbekiston: Talaba yotoqxonalar (57 ta loyiha)	O'zbekiston	Talabalar yotoqxonasi	DXSh (DXSh bitimi, xizmat haqi asosida)	~\$100 mln (rejali)	Vazirliklar, universitetlar, xususiy quruvchi kompaniyalar
Yantai Universiteti yangi kampusi	Xitoy	O'quv binolari, laboratoriya	BOT (2+15 yil)	1,36 mlrd CNY (\$≈190 mln)	Yantai shahar hokimiyati, Shandong Jianzhu U., Xitoy Qurilish shirkati
USG talaba uy-joylari	AQSh	Talabalar uy-joylari	Koncessiya <sup>1</sup> (65 y)	\$548.3 mln (obligatsiya)	Regents kengashi, Corvias (PPP shir.), banklar

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, DXSh loyihalarida moliyalashtirish strukturalari farq qiladi: O'zbekistonda loyihalar odatda davlat kafolati va xalqaro moliya institutlari grantlari bilan to'ldiriladi; Xitoyda butunlay investorlar (BOT) mablag'i; AQShda esa obligatsiya chiqarish orqali xususiy sherik tomonidan moliyalashtirilgan. Barcha loyihalarda loyiha-doirasidagi daromad va xarajatlarni boshqarish mas'uliyati xususiy sherikka yuklatilgan. Yuqoridagi loyihalarning amalga oshishi ta'lim muassasalarini zamonaviy yotoqxonalar va laboratoriyalar bilan ta'minladi. O'zbekiston holatida bunday yangilanishlar talabalarning qulayligini oshirib, ularning qamrovi kengaydi. Xitoy va AQSh misollarida esa katta sarmoyalar (bir necha yuz millionlab dollarga teng) jalb etilgani ko'rsatilgan, bu DXSh loyihalarining vaqt ichida loyihani yig'ish imkoniyatini ta'minlaydi. Yangi infratuzilma obyektlarining barpo etilishi talabalar uchun yashash va ta'lim olish sharoitlarini yaxshilab, oliy ta'lim tizimining jozibadorligini oshirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalar qamrovining kengayishi va inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda samarali instrument ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, uning samaradorligi bevosita loyihalarni tanlash, moliyalashtirish va boshqarish mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, DXSh modeli oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston misolida yotoqxonalar loyihalarida xususiy sektorni jalb qilish orqali kam quvvatdagi byudjet hisobidan talabalar sonini sezilarli oshirishga erishildi. Olingan natijalar davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim va samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, O'zbekiston tajribasida DXSh asosida amalga oshirilgan loyihalar infratuzilma obyektlarini qisqa muddatlarda barpo etish, investitsiya jalb qilish va talabalar uchun qulay sharoitlar yaratishda sezilarli natijalarni ko'rsatmoqda. Bu esa davlat byudjeti resurslarining cheklanganligi sharoitida muqobil moliyalashtirish manbalarini jalb etish zaruratini asoslaydi.

O'zbekiston va rivojlangan davlatlar tajribasi o'rtasida muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda DXSh loyihalari ko'proq diversifikatsiyalashgan bo'lib, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, innovatsion markazlar va texnoparklarni ham qamrab oladi. O'zbekistonda esa DXSh loyihalari asosan ijtimoiy infratuzilma — talabalar turar joylari va o'quv binolarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bu holat mamlakatda DXSh mexanizmlarining hali to'liq rivojlanmaganligini va kelgusida ularni kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shuningdek, DXSh orqali universitetlar zamonaviy laboratoriya va o'quv bino qurilishiga qarz hajmini oshirmasdan erishdi. DXSh loyihalari muvaffaqiyatli bo'lishi uchun izchil qonuniy mexanizm va monitoring zarur. Masalan, IMF tahliliga muvofiq, DXSh loyihalaridagi davlat kafolatlari va majburiyatlar davlat byudjetining muvofiq cheklovi doirasida tartibga solinishi lozim. O'zbekiston uchun xavflarni kamaytirish maqsadida budjet kafolatlari limitlarini belgilash, DXSh royxati va bahosini OTMlar holati bilan mos ravishda yangilab borish muhim. DXSh loyihalarida xarajatlar oshishi, loyiha daromadlilikining pasayishi kabi xavflar mavjud. Masalan, AQShdagi misolda pandemiya tufayli 10 ming o'rinlik uy-joy loyihasi amortizatsiyada qiyinchiliklarga yuz tutgan. O'zbekiston sharoitida ham bu kabi risklar uchun sug'urta va ixtiyoriy davlat kafolati mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Moliyalashtirish modelida esa an'anaviy hukumat kafolatli obligatsiyalar, o'quv yotoqxonalar uchun ipoteka kreditlari, shuningdek, xalqaro donor grantlari va konstitutsion jamg'armalar qo'llanishi mumkin. DXSh loyihalarini 2024-yildan Markaz orqali muvofiqlashtirish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Bu markaz loyihalarni tanlab olish, moliyaviy va iqtisodiy ta'sirini baholash, hamda monitoring qilish bo'yicha mas'uliyatni oladi. Davlat-



sharik (Vazirliklar, mahalliy hokimiyat) va xususiy shariklar orasida uning roli hamkorlikni kuchaytiradi. Tavsiya etiladi: DXSh loyihalarini boshqarishda xalqaro ekspertlar, auditor firmalari va konsalting texnologiyalaridan keng foydalanish, shuningdek, loyiha KPI'lari asosida natijalarni baholovchi mexanizmlar joriy etish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim infratuzilmasini DXSh orqali rivojlantirish istiqbollari aniq. Xususiy sektor bilan hamkorlik loyihalarni tezroq va yuqori sifatda amalga oshirishga, moliyaviy yukni kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq, muvaffaqiyatli DXSh uchun aniq nazorat mexanizmlari, loyiha tanlash standartlari va moliyaviy risklarni kamaytirish choralari e'tibor kuchaytirilishi lozim. Kelgusida DXSh tizimi qoidalarini yanada takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining DXShga tayyorgarligi va xususiy sharik qobiliyatlarini oshirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining oliy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar infratuzilma obyektlarini barpo etish jarayonini tezlashtirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hamda davlat byudjeti yuklamasini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda DXSh mexanizmlarini rivojlantirish uchun zarur huquqiy va institutsional asoslar shakllangan bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Xususan, loyihalarni tanlash mezonlarini takomillashtirish, moliyaviy va iqtisodiy risklarni samarali boshqarish hamda monitoring tizimini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kelgusida DXSh loyihalarini faqat ijtimoiy infratuzilma bilan cheklab qolmasdan, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion laboratoriyalar va raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimini barqaror va innovatsion rivojlantirish imkoniyati mavjud. Mazkur yo'nalishda izchil siyosat yuritish va ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dwight, Lawrence. 2025. "Republic of Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons." IMF Selected Issues Paper (SIP/2025/087), International Monetary Fund. Washington, DC.
2. president.uz
3. Junhao Ma, Xiangjun Li. Performance Evaluation of Education Infrastructure Public-Private Partnership Projects in the Operation Stage Based on Limited Cloud Model and Combination Weighting Method. Buildings 2025, 15(11), 1833; <https://doi.org/10.3390/buildings15111833>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.05.2019 yildagi O'RQ-537-son lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2021 yildagi 509-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.08.2024 yildagi PQ-308-son
7. Public-private partnerships to bridge gaps in education continuity in times of crises: the Ukraine case study UNESCO2025



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>